TA'LIMNI RIVOJLANTIRISH
RESPUBLIKA ILMIY-METODIK MARKAZI

# Davlat tilini kommunikativ yondashuv asosida oʻqitish metodikasi

# Kursning asosiy maqsadi

Kommunikativ yondashuvga asoslangan metodlar o'quvchilarning tilni amaliy faoliyatda qo'llash kompetensiyasini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashini qo'llab-quvvatlaydi hamda real muloqotga tayyorlaydi.



# Kommunikativ yondashuv (CLT)

Communicative Language Teaching (CLT) — tilni o'qitishning zamonaviy metodikasi bo'lib, o'quvchilarda davlat tilidan real hayotiy vaziyatlarda erkin va samarali foydalana olish kompetensiyasini shakllantirishga qaratilgan.

1. O'quvchi — faol ishtirokchi, o'qituvchi — yo'naltiruvchi
2. Juftlik va guruh ishlari, autentik materiallar asosida darslar
3. Tinglash, gapirish, o'qish, yozish kompleks rivojlantiriladi
4. CEFR va Milliy o'quv dasturi talablariga mos

# CLTning asosiy tamoyillari

1. Ta'limning kommunikativ maqsadga yo'naltirilishi
2. O'quvchi markazli ta'lim
3. Nutqiy faoliyat turlarining integratsiyasi
4. Autentik materiallardan foydalanish
5. Interfaol metodlarni qo'llash
6. Xatolarni rivojlanish omili sifatida qabul qilish
7. Kompetensiyaviy baholash

# Task –Based Learning (TBS)

Task-Based Learning yoki vazifaga asoslangan ta’lim metodikasi kommunikativ yondashuvning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, o‘quvchilarning tilni amaliy vazifalarni bajarish jarayonida o‘zlashtirishga asoslanadi.Ushbu metodikada til o‘rganishning asosiy vositasi grammatik qoidalarni alohida o‘rganish emas, balki ma’lum kommunikativ vazifani bajarish hisoblanadi.O‘quvchilar topshiriqni bajarish jarayonida yangi so‘zlar, grammatik birliklar va nutqiy ifodalardan tabiiy ravishda foydalanadilar.Ushbu metodikaning dars markazida vazifa (task) turadi.

Task – Based Learning metodikasida dars odatda uch bosqichda tashkil etiladi:

1. **Vazifagacha bo‘lgan bosqichi (Pre-task) –** o‘quvchilar mavzu bilan tanishtiriladi,zarur lug’at va til birliklari faollashtiriladi va vazifaning maqsadi tushuntiriladi
2. **Vazifani bajarish bosqichi (Task cycle) -** o‘quvchilar juftlik yoki guruhlarda vazifani bajaradilar, muloqot qiladilar va yakuniy mahsulotni tayyorlaydilar
3. **Tahlil va yakuniy bosqichi (Post-task) –** bajarilgan ishlar muhokama qilinadi, xatolar tahlil qilinadi, yangi til birliklari mustahkamlanadi va xulosalar chiqariladi

# Content-Based Learning (CBL)

Content-Based Learning (CBL) — tilni mazmun orqali o'qitish: o'quvchilar tilni alohida o'rganmaydi, balki muayyan mavzu yoki fan mazmunini o'zlashtirish jarayonida egallaydi.

## MAVZULAR DOIRASI

Tarix | Madaniyat | Tabiat | Ekologiya | Kasblar | Milliy qadriyatlar

- Til ko‘nikmalari (tinglash, gapirish, o‘qish, yozish) kompleks rivojlanadi
- Lug‘at boyligi kengayadi
- Tanqidiy fikrlash va axborotni tahlil qilish kompetensiyasi shakllanadi
- CEFR va kompetensiyaviy yondashuv tamoyillariga mos keladi

# Leksik yondashuv

**Lexical Approach — tilni o‘qitishda asosiy e’tiborni grammatik qoidalarga emas, balki so‘zlar, so‘z birikmalari va tayyor nutqiy qoliplarni o‘zlashtirishga qaratadigan metodika. Dars jarayonida barqaror so‘z birikmalari (collocations), iboralar va qolipli ifodalar bilan ishlashga alohida e'tibor beriladi.**

**Misollar:** *fikr bildirmoq* • *qaror qabul qilmoq* • *e'tibor bermoq* • *xulosa chiqarmoq*

1. Lug‘at boyligini kengaytirish
2. Og‘zaki va yozma nutqni rivojlantirish
3. Muloqotda erkin fikr bildirish

# Funksional savodxonlikni rivojlantirish

Funksional savodxonlik — o‘quvchining davlat tilidan kundalik hayot, ta’lim va kasbiy faoliyatda samarali foydalana olish qobiliyati.

## AMALIYOTDA QANDAY SHAKLLANADI

1. Rasmiy va norasmiy matnlarni o‘qish, e’lon, ariza, xabar yozish
2. Suhbat va munozaralarda ishtirok etish
3. Axborotni tahlil qilish, muammoli vaziyatlarga yechim topish
4. Tinglash, gapirish, o‘qish va yozish ko‘nikmalarini uzviy rivojlantirish

# Kommunikativ metodlarning afzalliklari

### Bilishdan foydalanishga

O'quvchini tilni bilishga emas, undan foydalanishga o'rgatadi — so'zlar tabiiy nutqda mustahkamlanadi

### Darsni jonlantiradi

Rolli o'yinlar, debatlar, keyslar darsdagi faollikni sezilarli oshiradi

### XXI asr ko'nikmalari

Jamoada ishlash, tinglash, fikr almashish, muammoni birgalikda hal qilish

### Baholashni o'zgartiradi

Dialog, taqdimot, loyiha himoyasi orqali haqiqiy kompetensiya aniqlanadi

# 5 ta amaliy mashg'ulot

**1**

**CLT**

Kommunikativ topshiriqlar ishlab chiqish

**2**

**TBL**

Vazifa (task) loyihalash

**3**

**CBL**

Fanlararo integratsiyalashgan mashqlar

**4**

**Lexical Approach**

Leksik-birikmali topshiriqlar

**5**

**Situatsion mashqlar**

Muloqot modellarini yaratish

# CLT tamoyillari asosida kommunikativ topshiriqlar

*Maqsad: davlat tili darslari uchun kommunikativ topshiriqlarni loyihalash va amaliyotda qo'llash.*

# TBL modeli asosida vazifa (task) loyihalash

*Maqsad: TBL metodikasi asosida kommunikativ vazifalarni loyihalash va qo‘llash.*

1. 3–5 kishilik guruhlarga bo'linish; mavzu beriladi (Mehmon kutish, Bozorda xarid...)
2. Pre-task: mavzuga kirish, lug‘at va iboralarni faollashtirish
3. Task cycle: asosiy kommunikativ vazifa ishlab chiqiladi
4. Post-task: bajarilgan vazifa tahlil qilinadi, xatolar ustida ishlanadi
5. Vazifa sinov tariqasida bajariladi, tavsiyalar beriladi

# CBL asosida fanlararo integratsiyalashgan mashqlar

*Maqsad: davlat tili darslarini boshqa fanlar bilan integratsiyalash.*

1. 3–5 kishilik guruhlarga bo'linish; fan va mavzu tanlanadi (tarix, geografiya, texnologiya...)
2. Mavzuga oid yangi so'z va iboralar aniqlanadi
3. Matn bilan ishlash, savol-javob va muhokama tashkil etiladi
4. Ijodiy/amaliy topshiriq va kamida 2 ta nutqiy faoliyat turi qo'shiladi
5. Mashqlar taqdim etiladi, CBL tamoyillariga mosligi asoslanadi

# Lexical Approach asosida leksik-birikmali topshiriqlar

*Maqsad: leksik-birikmali topshiriqlarni ishlab chiqish, lug'at boyligini oshirish.*

1. 3–5 kishilik guruhlarga bo'linish; mavzu beriladi (Oila, Ta'lim, Kasblar...)
2. So'z birikmalari, barqaror iboralar va nutqiy qoliplar ro'yxati tuziladi
3. Moslashtirish, gaplarni to'ldirish, dialog tuzish topshiriqlari yaratiladi
4. Vaziyat asosida qisqa suhbat yoki rolli o'yin tayyorlanadi
5. Topshiriqlar taqdim etiladi, takomillashtirish tavsiyalari beriladi

# Situatsion mashqlar va muloqot modellari

*Maqsad: hayotiy vaziyatlarga asoslangan situatsion mashqlar va muloqot modellarini yaratish.*

1. 3–5 kishilik guruhlarga bo'linish; vaziyat beriladi (do'konda xarid, shifokor qabulida...)
2. Muloqot maqsadi, rollar va kerakli so'z-iboralar aniqlanadi
3. Dialog yoki qisqa suhbat modeli ishlab chiqiladi
4. Vaziyatni davom ettiruvchi qo'shimcha savollar tayyorlanadi
5. Muloqot modeli rolli o'yin shaklida namoyish etiladi va tahlil qilinadi

# E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!